



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK SHAKLLARNI O'RGATISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH

To'xtasinov Dadaxon Farhodovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Abdupattoyeva Dilorom Akromjon qizi

FarDU 2- kurs magistranti


Annotatsiya: *ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik materiallarni o'rganishida didaktik materiallardan unumli va samarali foydalana olishini ta'minlashga qaratilgan. O'quvchilar ushbu usullar yordamida geometrik tasavvurlarini boyita oladi. Shuningdek boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ham geometrik materiallarni o'rgatishda ushbu didaktik materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.*

Kalit so'zlar: *geometriya mazmuni, didaktik materiallar, kartochkalar, natural ko'rgazmalar, grafik diktant, geometrik figura, abstrakt.*

Yurtimiz hayotining barcha jabhalardagi tub islohotlar ta'lim sohasini ham yangidan isloh qilinishini taqazo qiladi. Xususan, hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablariga qo'yilgan yangi talablar asosida boshlang'ich ta'lim matematikasi negizida bo'lgan geometriyaning mazmuni va metodikasini takomillashtirish yo'llari izlanmoqda. Ko'plab pedagog metodist olimlar bu borada ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga geometrik materiallarni samarali o'rgatishda didaktik materiallardan foydalanish maqbul usullardan biri. Didaktik material deganda faqatgina darslik va bosma asosli daftarnigina tushunmasdan, balki ko'rgazmali qurollar (geometrik figuralarining modellari, geometrik shakllarning axborot kommunikatsin vositalarning ilg'or natijalaridan foydalangan holda yaratilgan dasturiy ta'minot ko'rinishidagi shakllari, geometrik figuralarining rasmlari, qismlarga ajratilgan geometrik figuralar tasvirlangan plakatlar), tarqatma materiallar (o'chash, hisoblash ishlarini bajarishga oid geometrik figuralar modellari yoki ular tasvirlangan kartochkalar, testlar, geometrik masala yozilgan kartochkalar), nazorat qilish uchun kerakli materiallar (amaliy ishlar, testlar, matematik diktantlar, mustaqil ishlar, dars ishlanmalari, axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar) tushuniladi.

Geometrik tushunchalar va shakllarni o'rgatishda kartochkalardan foydalanishning asosiy maqsadi individual topshiriqlar bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilishda, programmaning asosiy materiallarini puxta o'zlashtirishda o'qituvchiga yordam berishdan iborat.

Ko'rgazmali vositalarni geometriya darsida qo'llash darsning sifatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, o'quvchilarning abstrakt tafakkurlarini ham, konkret tafakkurlarini ham rivojlantiradi. Bundan tashqari, ko'rgazmalardan foydalanish o'quvchilarni faollashtiradi, ularning e'tiborini, diqqatini oshiradi, o'rganilayotgan materialni to'laroq o'zlashtirish imkonini beradi, o'quv jarayonini boshqarish uchun yaxshi





sharoit yaratadi, vaqtni tejash imkonini beradi. Ko'rgazmalilikning tasviriy vositalari, jadval va rasmlar, o'quvchilarga o'rganilayotgan obyektlarning tuzilishi, shakli, rangi, ularning tabiiy o'rab olgan muhiti kabilar to'g'risida tasavvurlar beradi. Boshlang'ich sinflarda asosan jismlar, narsalar va hodisalarga oid tasavvurlarni hosil qildirish uchun ko'roq natural va tasviriy ko'rgazmalardan foydalaniladi, chunki bola rivojlanishining dastlabki bosqichida bo'lganligi uchun u mahvum materialni aniq ko'rsatmali material orqali o'zlashtira oladi. Ayniqsa geometrik materialni o'quvchilarga o'rgatish uchun tabiiy jismlardan foydalanish kerak. Chunki tabiiy jismlarni o'quvchilar ko'rish orqali tasavvuri yanada ko'roq hosil bo'ladi. Masalan o'quvchilarga fazoviy jism bo'lgan shar shaklini o'rgatayotganda koptokni, to'g'ri to'rtburchakni o'rgatayotganda doska, deraza kabilarni ko'rsatish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, ob'yekt shaklini to'g'ri idrok qilish uchun, predmet formalarini abstraktlashtirish qobiliyatini rivojlantirish uchun o'quvchilar shakllarning modellarini kuzatishlarigina emas, balki ularning o'zlari tomonidan shunday modellarning mustaqil yaratilishi ham juda muhimdir. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida kichik – kichik matematik diktantlar o'tkaziladi. Ushbu diktantlarga geometrik mazmundagi materiallarni kiritib borish maqsadga muvofiq. Bu geometriya elementlari haqida olingan bilimlarni mustahkamlashga, eslashga hamda shakllarni tasavvurda gavdalantirishga, shakllarni xossalarini yodda saqlashga yordam beradi. Masalan, o'quvchilarning chizma qobiliyatini rivojlantirish hamda tasavvur olamini shakllantirish uchun grafik diktantlarni o'tkazish ham juda foydali. Ushbu diktant orqali grafik ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtiradilar, daftar kataklari bilan tanishadilar, varaq atrofida harakat qilishni o'rganadilar

O'quvchilarga geometrik tushunchalar shakllarni o'rgatishda texnikaning ta'siri quyidagicha:

- fazoviy va mavhum fikrlash rivojlanadi;
- turli xil chiziqlar bilan tanishadi: vertikal, gorizontal, parallel;
- grafomotor ko'nikmalar shakllanadi;
- hisoblash qobiliyati mustahkamlanadi;
- diqqat va e'tibor kuchayadi;
- boshlangan narsani oxirigacha yetkazish uchun rag'bat paydo bo'ladi.

Ushbu uslub barcha uchun qulaydir, chunki darslar sayohatda, kutish davrida, uyda o'tkazilishi mumkin, ular murakkab qo'llanmalar va qurilmalarga muhtoj emas, katakchada qalam va daftar yetarli. Ushbu usulni algebra, informatika, geometriya, chizmachilik kabi turli xil darslarda ham qo'llash mumkin. Grafik diktant elementlari G. V. Dorofeevning birinchi sinf uchun darsligiga kiritilgan. Ularning yordami bilan bola burchak, grafik, chizma, diagonal, formula kabi zarur geometrik tushunchalarni osongina o'zlashtiradi. Quyidagi jadvaldagi topshiriq grafik diktantga misol bo'la oladi.





"Kuchuk shakar so'raydi"

Boshlang'ich nuqtasi- 5 katak pastga, 6 kataklar o'ng tomonda.

* 1 katak chapga,* 3 katak yuqoriga,

* 1 katak o'ngga, * 5 katak pastga,

* 2 katak o'ngga, * 2 katak yuqoriga,

* 1 katak o'ngga, * 1 katak pastga,

* 2 katak chapga, * 2 katak pastga,

* 1 katak chapga, * 1 katak pastga,

* 4 katak chapga, * 1 katak yuqoriga,

* 2 katak o'ngga, * 2 katak yuqoriga,

* 1 katak chapga, * 1 katak pastga,


* 1 katak chapga, * 2 katak yuqoriga,

* 2 katak o'ngga, * 1 katak yuqoriga,

* 1 katak chapga, * 1 katak yuqoriga,


* 1 katak o'ngga, * 1 katak yuqoriga,

* 1 katak o'ng tomonda.



Ko'rinib turibdiki, didaktik materiallar ma'lumot (yangi bilimlar) manbai, nazorat qilish, bilimlarning qanchalik o'zlashtirilganligini hisobga olish va nihoyat, o'quvchilarning mustaqil individual ishlarini tashkil qilish vazifalarini bajaradi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar, fikr va muloxazalarimizdan kelib chiqib aytmoqchimizki. Yurtimizda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarimizni bilim darajalarini dunyo miqyosidaga har qanday raqobatga tayyor holda bo'lishligini ta'minlash maqsadida, pedagog sifatida faoliyat yuritadigan o'qituvchilar, o'quvchilarning egallashi zarur bo'lgan bilimlarini, ularga samarali yetkazish yo'llarini doimiy ravishda izlab topish va mavjud yo'llarini takomillashtirib borish zaruriyati birlamchi ehtiyojdur.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Мирзиёев Ш.М. “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
2. А.А.Абдуқодиров “Мактабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланиш услубиёти” Насаф. Тошкент. 2011. – 229 с.
3. Ғозиев Э.Ғ. Социал психология. Ношир. Тошкент. – 2012 й
4. Farkhodovich, T. D. (2022). Pedagogical and Psychological Fundamentals of Developing Student Logical Thinking I. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 376-379.

